

O‘zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat  
va savdo vazirligi huzuridagi O‘zbekiston texnik  
jihatdan tartibga solish agentligining  
“3” iyul 2023 yildagi  
108k-con buyrug‘iga  
1-ilova

**O‘zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi huzuridagi  
O‘zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi Moliya-iqtisodiyot  
bo‘limi to‘g‘risida**  
**NIZOM**

**1-bob. Umumiy qoidalar**

1. Ushbu Nizom Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi huzuridagi O‘zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligining Moliya-iqtisodiyot bo‘limiga (keyingi o‘rinlarda-Bo‘lim) qo‘yiladigan talablarni, ularning huquqlari, majburiyatlari va javobgarligini belgilaydi.

2. Bo‘lim O‘zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi markaziy apparati (keyingi o‘rinlarda - Agentlik) tarkibiy bo‘linmasi hisoblanadi.

3. Bo‘lim o‘z faoliyatini, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga, budjet kodeksi, qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi oliy majlisi palatalarining qonunlari va boshqa moliya sohasidagi xujjalari, O‘zbekiston Respubliksi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlari, boshqa normativ-huquqiy hujjatlari, Agentlikning moliya sohasidagi bo‘yruqlari va ko‘rsatmalari, Agentlik Nizomi, shuningdek ushbu nizom va boshqa qonun hujjatlariga amal qiladi.

**2-bob. Bo‘lim faoliyatini tashkil etish**

4. Bo‘limga Agentlik direktorining buyrug‘i bilan lavozimga tayinlanadigan va lavozimdan ozod etiladigan boshliq rahbarlik qiladi.

5. Bo‘lim boshlig‘i belgilangan tartibda tasdiqlangan shtat jadvaliga muvofiq Bosh mutaxassislarga ega bo‘ladi. Bo‘lim xodimlarining xizmat vazifalari bo‘lim boshlig‘i tomonidan ushbu Nizomga muvofiq belgilanadi.

6. Bo‘lim boshlig‘i:

Bo‘limga yuklatilgan vazifa va funksiyalarini bajarish, boshqaruv ishini to‘g‘ri qo‘llashni tashkil etishni ta’minlaydi;

Bo‘limga yuklatilgan vazifa va funksiyalarning bajarilishi bo‘yicha nazorat olib boradi.

Bo‘limning tuzilishi va soni qonun hujjatlarida belgilangan tartibda tasdiqlanadi.

### **3-bob. Bo‘lim faoliyatining asosiy vazifalari va funksiyalari**

7. Bo‘limning asosiy vazifalari va funksiyalari quydagilardan iborat:

Moliya sohasida idoraviy mansub tashkilotlar bilan birgalikda bo‘limga yuklatilgan vazifa va funksiyalarning samarali bajarilishini tashkil etish va ta’minlash;

Agentlik va tizimidagi budget tashkilotlarini har yilgi budget mablag‘lari parametrlarini prognozlashtirish;

Belgilangan muddatlarda Agentlik va tizimidagi budget takshilotlarining vaqtinchalik xarajatlar smetalarini ishlab chiqish va kelishish;

Agentlik va tizimidagi budget tashkilotlarining xar yilgi yillik xarajatlar smetalarini ishlab chiqish va kelishish;

Agentlikning budgetdan tashqari standartlashtirish, sertifikatlashtirish va metrologiyani rivojlantirish maxsus jamg‘armasini (keyingi o‘rinlarda – Maxsus jamg‘arma) xar yilgi daromadlar va xarajatlar smetalarini ishlab chiqish va kelishish;

Agentlik va tizimidagi budget tashkilotlarini tuzilmalari asosida Agentlik va tizimidagi budget tashkilotlarni shtatlar jadvalini ishlab chiqish hamda o‘rnatalgan tartibda kelishish va tasdiqlash uchun raxbariyatga kiritish;

Agentlik tizimidagi ho‘jalik xisobidagi tashkilotlarini tasdiqlangan tuzilmasi asosida ishlab chiqilgan shtat jadvallarini ko‘rib chiqish va rahbariyatga taklif kiritish;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasining tegishli qarorlarida nazarda tutilgan hamda boshqa maqsadlar uchun Maxsus jamg‘arma mablag‘laridan foydalanish bo‘yicha soha mutaxassislar bilan kelishgan holda rahbariyatga takliflar tayyorlash;

Agentlikning xo‘jalik hisobidagi idoraviy mansub tashkilotlarini xar yilgi biznes rejalarini daromad va xarajatlar qismini ko‘rib chiqish hamda rahbariyatga takliflar kiritish;

Agentlik faoliyatining moliyaviy-iqtisodiy masalalari buyicha vazirlik va idoralar murojaatlarini ko‘rib chiqish hamda rahbariyatga taklif kiritish;

Xo‘jalik hisobidagi idoraviy mansub tashkilotlarning biznes rejasining daromad va xarajatlar qismi ko‘rsatkichlarini bajarilishini tahlil qilish hamda tegishli ko‘rsatmalar berish borish;

Barcha tizim tashkilotlarini tasdiqlangan xarajatlar smetasi va biznes rejalarini ko‘rsatkichlarini bajarilishini nazoratga olish va tegishli ma’lumotlarni ichki audit xizmatiga tekshirish uchun kiritish;

Xar chorak (yil) yakuni bilan barcha tizim tashkilotlari moliyaviy hisobotlari olish, ularni taxlil qilish va tasdiqlangan smeta va biznes reja ko‘rsatkichlariga

solishtirish, kamchiliklar aniqlangan taqdirda ularni bartaraf etish bo'yicha tizim tashkilotlarga ko'rsatmlar berish bo'yicha takliflar tayyorlash;

Tizim tashkilotlarining Agentlik oldidagi qarzdorliklarni tahlil qilib borish hamda ularni o'z vaqtida o'tkazilishini nazoratga olish;

Agentlik va tizim tashkilotlarining faoliyatini moliyalashtirish bo'yicha normativ-xuquqiy xujjatlar loyixalarini, shuningdek bo'lim vakolatiga kiruvchi boshqa masalalar buyicha uslubiy materiallarni ishlab chiqishda ishtirot etish va takliflar berish;

Agentlikning budgetdan tashqari jamg'armalariga tushayotgan tushumlarni tahlil qilib borish;

Vazirlik va idoralarning moliyaviy masalalari bo'yicha murojaatlari, takliflari, normativ xujjatlar loyihalarini ko'rib chiqish va rahbariyatga taklif kiritish.

Raxbariyat topshiriqlari asosida Agentlik va tizim tashkilotlarining xodimlar mehnatiga haq to'lash va moddiy rag'batlantirish bo'yicha nizomlar asosida amalga oshirilayotgan to'lovlarni o'r ganib chiqishda ishtirot etish hamda tegishli takliflar tayyorlash;

Yuqori turuvchi tashkilotlar tomonidan tasdiqlangan Agentlik xodimlarini mehnatiga haq to'lash va moddiy rag'batlantirish bo'yicha Nizom asosida Agentlik xodimlarini rag'batlantirish bo'yicha takliflarga muvofiq rag'batlantirish bo'yicha buyruq loyihalarini ishlab chiqish va tegishli bo'linmalar bilan kelishgan holda rahbariyatga kiritish.

#### **4-bob. Bo'lim huquqlari, majburiyatları va javobgarligi**

8. Unga yuklatilgan funksiyalarni amalga oshirish uchun qonun hujjalarda unga taqdim etilgan vakolat doirasida bo'lim quyidagi huquqlarga ega:

O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan tasdiqlangan Agentlik Maxsus jamg'armasini shakllantirish va undan foydalanish tartibi to'g'risidagi Nizomga muvofiq standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirishni rivojlantirish yuzasidan maxsus jamg'arma mablag'laridan foydalanish bo'yicha rahbariyatga taklif kiritish;

Ichki audit xizmati xodimlari bilan hamkorlikda Agentlikning idoraviy mansub tashkilotlarning moliya-xo'jalik faoliyatini joylarga chiqqan xolda o'r ganish;

Tizim tashkilotlari tomonidan smeta va biznes reja ko'rsatkilari ijrosini ta'minlanishini nazoratga olish maqsadida tizim tashkilotlaridan moliyaviy hisobotlarni so'rash va talab qilish;

Bo'lim O'zbekiston Respublikasi qonun xujjalara muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

9. Unga yuklatilgan funksiyalarni amalga oshirish uchun qonun hujjalarda unga taqdim etilgan vakolat doirasida bo'limning majburiyatları:

Bo‘lim xodimlari ushbu Nizomda ularga yuklatilgan vazifa va funksiyalarni to‘g‘ri va samarali bajarishlarishi ta’minlashi shart.

Bo‘lim xodimlari tayyorlanayotgan hujjatlar qonunchiligiga muvofiqligi uchun mas’uldirlar.

10. Unga yuklatilgan funksiyalarni amalga oshirish uchun qonun hujjatlarida unga taqdim etilgan vakolat doirasida bo‘limning javobgarligi:

O‘z vazifalarini bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi uchun boshqarma xodimlari qonun hujjatlariga muvofiq javobgarlikka tortiladi.